



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPHOМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholisi zich joylashgan hududlardagi qishloq joylarining barqaror rivojlanishi nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Qishloq hududlarining mohiyati, zich joylashuv fenomeni hamda barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari qishloq sharoiti kontekstida ko'rib chiqiladi. BMTning SDG 11 maqsadi doirasidagi ustuvor yo'nalishlar muhokama qilinib, qo'llab-quvvatlovchi aholi punktlari tizimi va qishloq aglomeratsiyalari zich joylashgan hududlar uchun barqaror rivojlanishning samarali tashkiliy shakllari sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: qishloq joylari, barqaror rivojlanish, zich joylashgan hududlar, SDG 11, qishloq aglomeratsiyasi, qo'llab-quvvatlovchi aholi punktlari, hududiy siyosat.

Abstract. This article provides a theoretical and methodological analysis of the sustainable development of rural settlements in densely populated territories. The nature of rural areas, the phenomenon of dense settlement, as well as the economic, social, and ecological components of sustainable development are examined in a rural context. The priority directions of the UN SDG 11 target are discussed, and the support settlement system and rural agglomerations are substantiated as effective organisational forms of sustainable development.

Key words: rural settlements, sustainable development, densely populated areas, SDG 11, rural agglomeration, support settlement system, territorial policy.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проводится теоретико-методологический анализ устойчивого развития сельских населённых пунктов в густонаселённых территориях. Рассматриваются сущность сельских территорий, феномен плотного расселения, а также экономические, социальные и экологические компоненты устойчивого развития в контексте сельской местности. Обсуждаются приоритетные направления цели SDG 11 ООН, обосновываются система опорных населённых пунктов и сельские агломерации как эффективные организационные формы устойчивого развития.

Ключевые слова: сельские населённые пункты, устойчивое развитие, густонаселённые территории, SDG 11, сельская агломерация, система опорных населённых пунктов, территориальная политика.

KIRISH

Jahon aholisining qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi taqsimlanishi ko'plab mamlakatlar uchun muhim strategik masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo aholisining 42,3 foizi, ya'ni 3,4 mlrd dan ortiq kishi qishloq hududlarida istiqomat qilgan. Biroq qishloq joylari bir xil xususiyatga ega emas: ularning ayrimlari siyrak joylashgan bo'lsa, boshqalari yuqori aholi zichligi bilan ajralib turadi. Xususan, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo hamda Afrikaning bir qator mintaqalarida qishloq maqomidagi hududlarda 1 km² maydonga 100–500 va undan ortiq kishi to'g'ri kelishi kuzatiladi. Masalan, Bangladesh qishloq hududlarida aholi zichligi 1 265 kishi/km² dan oshadi. O'zbekistonning Farg'ona vodiysi ham shunday zich joylashgan qishloq mintaqasining o'ziga xos namunasi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda "qishloq" va "zich joylashgan hudud" tushunchalari ko'pincha alohida-alohida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv ushbu hududlarning barqaror rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq o'rganish va samarali hududiy siyosat ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Bugungi kunda jahon miqyosida resurslardan foydalanish hajmi ortib, iqlim o'zgarishi ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda zich joylashgan qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Ushbu maqolaning maqsadi — zich joylashgan hududlardagi qishloq joylarini alohida ilmiy obyekt sifatida asoslash, barqarorlikning tarkibiy elementlarini tahlil qilish hamda SDG 11 doirasida ularni rivojlantirishning nazariy modelini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi 1987-yilga to'g'ri keladi. Brundtland komissiyasining "Umumiy kelajagimiz" ("Our Common Future") nomli hisobotida barqaror rivojlanish "kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga zarar yetkazmagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarini ta'minlash" sifatida ta'riflangan. 1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Yer sammitida esa barqaror rivojlanishning uch asosiy ustuni — iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlik — xalqaro miqyosda mustahkamlangan.

Qishloq hududlari uchun barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etishda Chambers va Conway (1992) tomonidan ishlab chiqilgan "barqaror tirikchilik" (sustainable livelihoods) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelda iqtisodiy daromad bilan bir qatorda tabiiy kapitaldan foydalanish imkoniyati, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy omillar ham barqarorlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Marsden (2003) qishloq barqarorligini shahar barqarorligidan farqlanuvchi o'ziga xos hodisa sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, qishloq hududlari ko'pincha demografik o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining pastligi va infratuzilmani rivojlantirish zarurati bilan tavsiflanadi. Zich joylashgan qishloq hududlari esa ushbu omillarning murakkab uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi.

Hududiy rejalashtirishga oid ilmiy adabiyotlarda zich joylashgan qishloq hududlarining tasnifi va ularga yo'naltirilgan siyosat masalalari Shucksmith va Brown (2016) tomonidan batafsil tahlil qilingan. Tacoli (1998) esa shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, zich joylashgan qishloq hududlari ushbu ikki tizim kesishuvida shakllanishini asoslab bergan. Zamonaviy tadqiqotlarda SDG 11 maqsadining qishloq hududlari uchun ahamiyati ham keng muhokama qilinmoqda. Jumladan, Nefedova va Treyvish (2017) hududiy rivojlanishning ikki qutbli modelini taklif etib, zich joylashgan hududlar atrofdagi keng hududlar uchun "o'sish nuqtalari" vazifasini bajarishini ko'rsatganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induktiv va deduktiv mantiq, taqqoslash, tizimli hamda strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar bazasi sifatida BMT va uning ixtisoslashgan idoralari — UN-Habitat, FAO, UN DESA — hisobotlari va ma'lumotnomalari, Jahon banki ko'rsatkichlari, xalqaro ilmiy maqolalar hamda sohaviy tadqiqot natijalari qo'llanilgan. Zich joylashgan qishloq hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda tipologik yondashuv va aholi joylashuvi mezonlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zich joylashgan qishloq hududlari na siyrak joylashgan qishloq hududlari, na shaharlar uchun ishlab chiqilgan standart yondashuvlar doirasiga to'liq mos keladi. Ushbu hududlar o'ziga xos xususiyatlar majmuasiga ega bo'lib, ular uchun maxsus moslashtirilgan barqaror rivojlanish modeli talab etiladi. Tadqiqot natijalari to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi.

Qishloq hududi tushunchasining yagona ta'rifi hozirgi kunda ham ilmiy muhokamalar markazida bo'lib qolmoqda. Keng tarqalgan yondashuvga ko'ra, qishloq deb shahar maqomiga ega bo'lmagan har qanday aholi punkti tushuniladi. Biroq ushbu ta'rif hududning iqtisodiy tuzilishi, aholi zichligi va infratuzilma darajasini to'liq hisobga olmaydi. Kompleks yondashuv esa qishloq hududini o'ziga xos iqtisodiy tuzilma, ijtimoiy munosabatlar va ekologik xususiyatlarga ega murakkab tizim sifatida talqin qiladi.

Zich joylashgan qishloq hududlarini tasniflashda ikkita mezon muhim ahamiyat kasb etadi: birinchisi — aholi zichligi ko'rsatkichi (100 kishi/km² dan yuqori), ikkinchisi esa qo'shni aholi punktlari bilan funksional aloqalarning intensivligidir. Ushbu ikki mezonning birgalikda qo'llanilishi bunday hududlarni tipologiyalash imkonini beradi. Mazkur hududlar, bir tomondan, yuqori aholi zichligi va resurslardan foydalanish intensivligi bilan tavsiflansa, ikkinchi tomondan, rasmiy qishloq maqomini saqlab qolgan holda shahar infratuzilmasining ayrim elementlariga ehtiyoj sezadi. Aynan shu jihatlar ularni alohida ilmiy va boshqaruv objekti sifatida o'rganishni dolzarb qiladi.

Zich joylashgan qishloq hududlarida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari alohida tahlilni talab etadi. Iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan asosiy masalalardan biri — mahalliy iqtisodiyotning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi va daromadlarning yirik shahar markazlariga yo'naltirilishidir. Ko'plab zich joylashgan qishloq hududlarida aholi daromadlari hamda soliq tushumlari yaqin shahar markazlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, mahalliy iqtisodiyotning ichki multiplikativ ta'siri nisbatan cheklangan holda qolmoqda.



Ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan zich joylashgan qishloq hududlariga xos demografik holat e'tiborni tortadi. Yosh avlodning shaharlarga intilishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, tug'ilish darajasining yuqoriligi hisobiga umumiy aholi soni barqaror saqlanib qolmoqda yoki ayrim hollarda o'sib bormoqda. Ushbu holat demografik ko'rsatkichlarning ijobiy ko'rinishiga qaramay, ta'lim darajasi, malaka tarkibi va iqtisodiy faollik kabi sifat ko'rsatkichlarini yanada rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Ekologik barqarorlik jihatidan yer va suv resurslaridan intensiv foydalanish asosiy omillardan biri hisoblanadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, qishloq hududlarida o'rta yoki yuqori darajadagi oziq-ovqat ta'minoti bilan bog'liq masalalar 32 foizni tashkil etsa, shaharlarda bu ko'rsatkich 23,9 foizga teng. Shu bilan birga, zich joylashgan qishloq hududlari ekologik jihatdan bir qator ustunliklarga ham ega. Aholi va xizmatlarning o'zaro yaqin joylashuvi energiya hamda transport xarajatlarini tejash imkonini beradi, mahalliy bilim va an'anaviy agroekologik tajribalar esa resurslardan oqilona foydalanishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi"da SDG 11 — "Barqaror shaharlar va aholi punktlari" maqsadi — hududiy rivojlanishning xalqaro me'yoriy asoslaridan biriga aylandi. Ushbu maqsad nafaqat shahar hududlarini, balki qishloq va shahar atrofi hududlarini ham qamrab oladi. SDG 11 ning 11.a-maqsadi bevosita qishloq hududlariga taalluqli bo'lib, milliy va mintaqaviy rejalashtirish orqali shahar, shahar atrofi hamda qishloq hududlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik aloqalarni mustahkamlashni nazarda tutadi.

SDG 11 ning 11.3-maqsadi esa inklyuziv va ishtirokchi hududiy rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2000–2020-yillar oralig'ida shahar hududlari aholining o'sish sur'atlariga nisbatan 3,7 baravar tezroq kengaygan. Bu holat shahar atrofi qishloq hududlariga demografik va iqtisodiy yuklamaning ortib borayotganini ko'rsatadi. 2022-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab 1,1 milliard kishi norasmiy aholi punktlarida yashaydi. Zich joylashgan qishloq hududlarida yashash sifati bilan bog'liq masalalar esa rasmiy statistikada har doim ham to'liq aks etmasligi mumkin. Barqaror rivojlanish hisoboti — 2024 ma'lumotlariga ko'ra, belgilangan SDG maqsadlarining atigi 16 foizi 2030-yilga mo'ljallangan sur'atlarda amalga oshirilmogda. SDG 11 ham qo'shimcha e'tibor talab qiluvchi maqsadlar qatorida qayd etilgan.

Qo'llab-quvvatlovchi aholi punktlari tizimi g'oyasi hududiy rejalashtirishning klassik nazariyalaridan biri — Walter Christaller tomonidan 1933-yilda ishlab chiqilgan "Markaziy joylar" konsepsiyasiga borib taqaladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, aholi punktlari xizmat ko'rsatish hududining kattaligiga qarab ierarxik tizimni shakllantiradi. Zamonaviy sharoitda mazkur tizim nafaqat savdo va xizmat ko'rsatish, balki iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, demografik jarayonlarni muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy infratuzilmani optimallashtirish vositasi sifatida ham qaralmoqda.

Zich joylashgan qishloq hududlari uchun ushbu tizim ayniqsa muhim ahamiyatga ega. U cheklangan resurslarni strategik taqsimlash va kichik aholi punktlarini yirikroq markazlar bilan samarali bog'lash imkonini beradi. Tayanch markazlarni tanlashda asosiy mezon sifatida infratuzilma va xizmatlar salohiyati hamda hududning real tortish kuchi hisobga olinishi lozim. Amaliyotda esa ayrim hollarda tayanch markazlar tarixiy yoki ma'muriy omillar asosida shakllanib, ularning hududiy ta'sir doirasi yetarli darajada inobatga olinmay qolishi mumkin.

Qishloq aglomeratsiyasi esa bir-biriga yaqin joylashgan bir necha aholi punktlarining yagona funksional tizimga tabiiy ravishda birlashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon ma'muriy qarorlardan ko'ra ko'proq aholining kundalik harakati, mehnat bozori va savdo aloqalari asosida shakllanadi. Zich joylashgan hududlardagi qishloq aglomeratsiyalari barqaror rivojlanish uchun muhim imkoniyat yaratadi, chunki yagona aglomeratsiya doirasida infratuzilma va xizmatlarni tashkil etish alohida kichik aholi punktlariga xizmat ko'rsatishga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Bu "xizmatlarning kritik massasi" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni ma'lum bir aholi soni shakllangandagina ayrim xizmat turlarini iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zich joylashgan qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi siyrak qishloq hududlari yoki shaharlar uchun ishlab chiqilgan yondashuvlarni bevosita qo'llash orqali to'liq ta'minlanmaydi. Bunday hududlar o'ziga xos xususiyatlar majmuasiga ega: aholi zichligi yuqori bo'lsa-da, infratuzilma rivojlanishini yanada takomillashtirish zarurati mavjud; resurslardan foydalanish intensivligi yuqori bo'lsa-da, jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy uyushqoqlik saqlanib qolgan; iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish muhim hisoblangan holda, qishloq xo'jaligi ham hudud iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari zich joylashgan qishloq hududlarida o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonida yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi; aholi sonining barqaror o'sishi kommunal infratuzilmani rivojlantirish ehtiyojini kuchaytiradi; ekologik talablar esa iqtisodiy rivojlanish bilan muvozanatli tarzda uyg'unlashtirilishi lozim.



Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, zich joylashgan qishloq hududlarini hududiy rejalashtirish tizimida alohida toifa sifatida e'tirof etish hamda ularni SDG 11 ning 11.a-maqسادi doirasida kompleks rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, qo'llab-quvvatlovchi aholi punktlarini tanlashda obyektiv funksional tahlil mezonlariga ustuvor ahamiyat qaratish, hududlarning real infratuzilma va xizmat ko'rsatish salohiyatini chuqur hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, qishloq aglomeratsiyalarini rasmiy rejalashtirish hujjatlarida inobatga olish hamda ularning ichki infratuzilma va transport aloqalarini optimallashtirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution A/RES/70/1. — New York: UN General Assembly, 2015. — 35 p.
2. UN DESA. The Sustainable Development Goals Report 2024. — New York: United Nations, 2024. — 84 p.
3. Jeffrey D. Sachs va boshqalar. Sustainable Development Report 2024. — Cambridge: Cambridge University Press, 2024. — 380 p.
4. Gro Harlem Brundtland. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. — Oxford: Oxford University Press, 1987. — 400 p.
5. Robert Chambers, Gordon R. Conway. Sustainable Rural Livelihoods: Practical Concepts for the 21st Century. — Brighton: IDS Discussion Paper 296, 1992. — 29 p.
6. Walter Christaller. Die zentralen Orte in Süddeutschland. — Jena: Gustav Fischer, 1933. — 331 s.
7. Terry Marsden. The Condition of Rural Sustainability. — Assen: Van Gorcum, 2003. — 208 p.
8. Mark Shucksmith, David L. Brown (eds.). Routledge International Handbook of Rural Studies. — London: Routledge, 2016. — 680 p.
9. Cecilia Tacoli. Rural-Urban Interactions: A Guide to the Literature // Environment and Urbanization. — 1998. — Vol. 10(1). — P. 147–166.
10. FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. — Rome: FAO, 2023. — 200 p.
11. UN-Habitat. World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities. — Nairobi: UN-Habitat, 2022. — 294 p.
12. Tatiana G. Nefedova, Andrey I. Treyvish. Goroda i selskaya mestnost' v prostranstve Rossii // Regionalnye issledovaniya. — 2017. — № 2. — S. 23–34.
13. Institut ekonomiki goroda. Selskie aglomeracii v kontekste sistemy opornyx naselennykh punktov RF. — Moskva: Fond IEG, 2025. — 54 s.
14. World Bank. World Development Indicators 2024. — Washington D.C.: World Bank Group, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>